



MULTIMODAL VOSITALAR YORDAMIDA BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QUVCHILARINING INGLIZ TILIDAGI KOMMUNIKATIV KO‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH VA EMI MUHITIGA TAYYORLASH: M-EMIAF MODEL

Tuxtayeva Zarina Faxriddinovna

ORCID iD: 0009-0001-7396-2302

Salam International School, Tashkent

Ingliz tili fani o‘qituvchisi

Email: zarinafakhriddinovna861@gmail.com

Annotatsiya O‘zbekistonda fanlarni ingliz tilida o‘qitish (EMI) ning keskin kengayishi boshlang‘ich ta’limda tayyorgarlik modellarini ishlab chiqish va ularni amaliyotda qo‘llashni taqozo qilmoqda. Ushbu tadqiqot boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining vizual va muloqot ko‘nikmalarini shakllantirishga qaratilgan **Multimodal EMI Adaptation Framework (M-EMIAF)** modelini taklif qiladi.

Kalit so‘zlar: Boshlang‘ich ta’lim, Multimodal model, Vizual va kommunikativ kompetensiya, EMI.

Abstract The rapid expansion of English Medium Instruction (EMI) in Uzbekistan necessitates the development and practical implementation of preparatory models in primary education. This study proposes the **Multimodal EMI Adaptation Framework (M-EMIAF)**, aimed at developing the visual and communicative skills of primary school pupils.

Keywords: Primary education, Multimodal model, Visual and communicative competence, English-Medium Instruction (EMI).

Аннотация Резкий рост преподавания предметов на английском языке (EMI) в Узбекистане требует разработки и практического применения подготовительных моделей в начальном образовании. Данное исследование предлагает модель **Multimodal EMI Adaptation Framework (M-EMIAF)**, направленную на формирование визуальных и коммуникативных навыков у учащихся начальных классов.

Ключевые слова: начальное образование, мультимодальная модель, визуальная и коммуникативная компетентность, обучение на английском языке (EMI).

Kirish

O‘zbekistonda fanlarni ingliz tilida o‘qitish (EMI) jadal ommalashmoqda. Shunga qaramasdan, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini EMI darslariga tayyorlashda "ta’lim va til ko‘prigi" doirasida sezilarli bo‘shliq saqlanib qolmoqda. Ushbu muammo boshlang‘ich sinf

o‘quvchilarining fanga yo‘naltirilgan ingliz tilidagi materiallarni anglashida va erkin muloqot qilishida qiyinchiliklarni keltirib chiqarmoqda [1].

So‘nggi yillarda EMI nafaqat oliy ta‘limda balki o‘rta ta‘lim muassalarida ham keskin rivojlanayotganligini alohida e‘tirof qilish kerak. Ammo, yetarli til ko‘nikmalariga ega bo‘lmagan o‘quvchilarda fanlarni o‘zlashtirish sezilarli darajada past bo‘lishini ham tadqiqotlar isbotlagan. Shu sababdan, boshlang‘ich sinfdayoq o‘quvchilarda vizual va kommunikativ aspektlarni rivojlantirishga qaratilgan samarali pedagogic model tadbiri qilinishi bugungi kunda dolzarb masala bo‘lib qolmoqda.

Ushbu tadqiqotda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining vizual va kommunikativ ko‘nikmalarini kompleks rivojlantirishga asoslangan multimodal pedagogik model taklif etiladi. Model o‘quvchilardagi akademik va emotsional bosimni kamaytirib, ularning kognitiv tushunish darajasini oshirishga xizmat qiladi.

Ushbu tadqiqotning ilmiy yangiligi shundan iboratki, bunda boshlang‘ich sinf o‘quvchilari bosqichma-bosqich EMI ga Multimodal EMI Adaptation framework (M-EMIAF) orqali tayyorlanib, o‘quvchilarni bu EMI muhitiga moslashtiradi. Taklif etilgan model vizual scaffolding, kommunikativ faoliyatni hamda multimodal vositalar orqali yagona didaktik tizimga birlashtiradi va shu asosiy vazifasi va tuzilmasiga ko‘ra boshqa modellardan farq qiladi.

Tadqiqot ob‘ekti sifatida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini ingliz tilida o‘qitish (EMI) muhitiga tayyorlash va moslashtirish jarayoni hisobga olingan bulsa, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida vizual va muloqot ko‘nikmalarini rivojlantiruvchi multimodal pedagogik vositalar va usullar tadqiqot predmeti sifatida qabul qilindi. Shuningdek tadqiqotning asosiy muhim maqsadi M-EMIAF modelini ishlab chiqish va uning amaliy samaradorligini asoslash va uni boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini EMI ga tayyorlashda metodik imkoniyatlarni aniqlash demakdir.

Taklif qilinadigan pedagogik model o‘quvchilarda til va fan mazmunini parallel ravishda rivojlantirishga urg‘u beradi.

Tadqiqot vazifalari:

1. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining EMI darslaridagi kognitiv va tilga oid g‘ovlarini aniqlash.
2. 3 bosqichli M-EMIAF modelini shakllantirish.
3. Modelning samaradorligini tajriba orqali tahlil qilish.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi

Xalqaro miqyosda EMI keng ko‘lamda o‘rganilgan. Jumladan, E. Macaro va J. Dearden‘ga ko‘ra, til darajasi yetarli bo‘lmasa, o‘quvchida mavzuni tushunish ancha qiyin kechadi va uning fan o‘zlashtirishi ham sezilarli darajada tushib ketadi [2], [3].

So‘nggi yillarda olib borilayotgan tadqiqotlar EMI muhitida multimodal modellardan foydalanish ta‘limda ijobiy natijalar berayotganini ko‘rsatadi. Ayniqsa, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida eslab qolish va tushunish asosan vizual materiallar hamda tana harakatlari bilan oson o‘zlashtirilishi ham ta‘kidlanmoqda.

Shuningdek, O‘zbekistonda ham chet tili o‘qitish metodikalari o‘rganilgan: J. Jalolov va D. Hasanova tadqiqotlari bunga misol bo‘la oladi [4], [5]. Ammo, boshlang‘ich sinflarni EMIga tayyorlash masalasi hamon ochiq qolmoqda.

Shuningdek, mavjud ilmiy maqolalar shuni ko‘rsatadiki oliy ta‘lim va o‘rta ta‘lim maskanlari sinflari uchun EMI ga tayyorlash pedagogik modellari o‘rganilgan va tavsiya qilingan. Ammo aynan boshlang‘ich sinflarda bu muhitga moslashish va kirishni osonlashtiruvchi modellar hali ham yetarli emasligi bu borada ko‘plab tadqiqotlar va nazariy-amaliy bilimlarni oshirish kerak ekanini anglatadi.

Ushbu muammoni hal qilishga qaratilgan 4 ta asosiy nazariy tuzilma birlashtirildi:

1. Multimodal Social Semiotics (G. Kress and T. van Leeuwen): Zamonaviy axborot faqat matn ko‘rinishida emas, balki harakatlar, tasvirlar va makon kabi muhim resurslar orqali ham samarali yetkazilishini asoslaydi [6].

2. Cognitive Load Theory (J. Sweller): Insonning bir vaqtda ham yangi til, ham yangi tushunchani eslab qolishi uchun ishchi xotirasi chegaralangan bo‘lib, bunda vizual va eshitish kanallarini birgalikda ishlatish zarurligini keltirib o‘tadi [7].

3. Dual Coding Theory (A. Paivio and R. Mayer): Verbal va vizual ko‘rinishda ko‘rsatib o‘rgatilgan ma‘lumotlar inson xotirasida saqlanish darajasini 2 barobar oshirishini ko‘rsatadi [8], [9].

4. Scaffolding and ZPD (L. Vygotsky and J. Bruner): O‘quvchilarni mustaqil o‘zlashtirish darajasiga yetguniga qadar vaqtinchalik qo‘llab-quvvatlash (poydevor yaratish) zarurligini isbotlaydi [10], [11].

Ko‘rsatilgan nazariyalar alohida-alohida turli jihatlaridan yoritilgan bo‘lsada, ularni boshlang‘ich sinflarni EMI ga tayyorlash jihatidan birga qo‘llash tadqiqotlarda juda kam uchraydi. Shuning uchun, ushbu taklif qilingan tadqiqot Multimodal EMI Adaptation Framework (M-EMIAF) modeli aynan ushbu nazariyalarni birlashtirgan va yagona konseptual model yaratish uchun ishlab chiqildi.

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqotda aralash metodologiya (mixed-methods design) qo‘llanildi. Aralash metodologiyalarni tanlashdan asosiy maqsad bu o‘quvchilarning kommunikativ rivojlanishini miqdor va sifat jihatlaridan to‘g‘ri baholashdan iborat. Albatta, bu yondashuv turli manbalardan yig‘ilgan ma‘lumotlarni taqqoslashga imkon yaratadi. Tajriba-sinov ishlari Toshkent shahridagi ingliz tiliga ixtisoslashtirilgan maktabning 2-sinf (40 nafar) o‘quvchilarini o‘z ichiga oldi. Ushbu tadqiqot pilot tadqiqot sifatida o‘tkazildi va tavsiya qilingan modelning ilk amaliy imkoniyatlarini baholash va aniqlashdan iboratdur.

Ishtirokchilar tadqiqot maqsadiga ko‘ra maqsadli tanlab olindi. Bunda o‘quvchilarning yoshi, til bilish darajasi EMI ga o‘tish bosqichida ekanini bildiradi. O‘quvchilarning til darajasi CEFR bo‘yicha A2 (Elementary) bo‘lib, ushbu tadqiqot 8 hafta davom etdi. Tashqi tasirni kamaytirish uchun o‘quvchilarga bir xil didaktik materiallar tarqatildi.

Baholash vositalari: pre-test/post-test, sinf kuzatuv rubrikasi, emotsional xavotir shkalasi. Bir nechta baholash vositalaridan foydalanish natijalarning o‘zaro tasdiqlanishiga (triangulation) ga yordam beradi.

Diagnostic pre va post-testlar: Fanga doir lug‘at boyligini o‘zlashtirish darajasini 8 haftalik tajriba boshlanishidan oldingi va keyingi holatlarini taqqoslash uchun ishlatildi.

Sinf kuzatuvi rubrikasi: O‘quvchilarning o‘z ixtiyori bilan darsda faol qatnashishi, mavzu yuzasidan berilgan savollarni tushunishi hamda noverbal (yuz ifodalari va imo-ishoralar) muloqot orqali fanni tushunganlik darajasi baholandi.

Emotsional xavotirni o‘z-o‘zini baholash shkalasi: O‘quvchilarda ingliz tilida gapirishdagi xavotir va o‘ziga bo‘lgan ishonch darajasini aniqlashda emoji-lardan foydalanildi.

Tahlil va natijalar

O‘tkazilgan tadqiqotda M-EMIAF (Multimodal EMI Adaptation Framework) modeli 3 ta bosqichga bo‘lindi va amaliyotga tatbiq qilindi:

1. Harakatli-vizual (Enactive-Visual): TPR (Total Physical Response) Harakatlari va hayotiy predmetlar orqali tushuntirish.


2. Tasviriy-verbal (Iconic-Verbal): Tasvir va grafikalar orqali lug‘atni bog‘lash.

3. Ramziy interaksiya (Symbolic-Interactive): Vizual gap qoliplari orqali erkin muloqot qilish imkonini yaratish.

Taklif qilingan M-EMIAF modeli boshlang‘ich sinf o‘uvchilarining bosqichama-bosqich EMI ga tayyorlashga ko‘maklashadi. Modelda har bir bosqich keying bosqichning mantiqan davomi bo‘lib bunda avval o‘quvchi vizual idrokka so‘ng mustaqil muloqot faoliyatiga o‘tadi. Bu nafaqat o‘quvchilardagi kognitiv bosimni kamaytiradi balki, tabiiy ravishda til ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan bo‘ladi.

M-EMIAF modelining 3 bosqichli tuzilmasi

1-rasm.



1-jadval

M-EMIAF modeli qo‘llanilishidan oldingi va tatbiq qilinganidan keyingi natijalarning taqqoslama tahlili

Baholash mezonlari	Pre-test	Post-test	O‘rta ko‘rsatkichi (%)
Darsdagi faollik	2.8/5	4.0/5	+ 42%
Fanga oid terminlarni eslab qolish	48%	83%	+35%
Muloqot xavotiri	64%	25%	-39%

Jadvaldan ko‘rinadiki, model kognitiv yukni kamaytirish va tushunishni oshirgan. Ushbu ko‘rsatilgan natija multimodal modelining samarali ekanini ko‘rsatuvchi yana bir ilmiy tadqiqotga mos keladi. Jumladan, Mayer (2009) ga ko‘ra taqdim qilingan multimedia vositalari orqali o‘rgatish o‘quvchilar imkoniyatini bir vaqtda ham vizual ham verbal qabul qilish darajasini oshirishi ta’qidlangan [9].

Sweller (2011) tomonidan ilgari surilgan Cognitive Load Theory ga ko‘ra agar malumotlar bosqichma-bosqich yetqazilsa u o‘quvchidagi aqliy bosimni kamaytiradi. Darslarda o‘quvchilarning xavotirini kamayishi va darslardagi faollik oshishi bu nazariyani amaliy jihatdan qo‘llab quvvatlaydi [7].

Shuningdek, Dearden (2015) va Macaro (2018) EMI muhitida o‘quvchilarning til darajasi yetarli bo‘lmaganda bu ularning natijalariga salbiy ta’sir ko‘rsatishi ta’qidlangan. M-EMIAF modeli esa aynan shu muammoni boshlang‘ich sinf o‘quvchilari orasida hal qilishga qaratilgan [3], [2].

Erishilgan natijalar shuni ko‘rsatadiki, multimodal vositalarni bosqichma-bosqich qo‘llash nafaqat ularning til bilish ko‘nikmasini hatto ularning o‘ziga bo‘lgan ishonchini ham oshiradi.

Shuningdek, bu pilot tadqiqot daslabki natijalar va imkoniyatlarni tekshirish uchun o‘tqazildi kelajakda yana ham kengroq ishtirokchilar va EMI muhitlarida o‘tqazilishi bu tadqiqotning yana bir yo‘nalishidan biri hisoblanadi.

8 haftalik tadqiqot natijalariga ko‘ra multimodal model o‘quvchilarning darsdagi faolligini 42% ga va lug‘atni yodda saqlab qolish darajasini 35% ga oshirgan. Shuningdek, ko‘plab o‘quvchilarda uchraydigan gapirishdagi emotsional xavotir darajasi 39% darajaga kamayganini ko‘rsatadi.

Xulosa va takliflar

O‘tkazilgan tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, CEFR A2 darajasiga ega 2-sinf o‘quvchilarida taklif qilingan M-EMIAF modeli ularning vizual va kognitiv ko‘nikmalarini rivojlantirdi va bu model samaradorligini tasdiqladi. An’anaviy darslar o‘quvchilarda bosimni oshirgan bo‘lsa, multimodal yondashuv esa natijalarni sezilarli darajada yaxshiladi.

Tavsiyalar:

1. O‘quv darsliklariga kiritish: EMIga asoslangan maktablarning boshlang‘ich sinflari uchun haftalik dars jadvallari va dasturlariga M-EMIAF modelini qo‘shish.

2. O‘qituvchilar malakasini oshirish: Boshlang‘ich EMI sinflarida dars beradigan o‘qituvchilarga "Vizual va multimodal scaffolding" texnikasidan kengroq foydalanish bo‘yicha qo‘shimcha trening va seminarlar tashkil etish.

3. Darslik va metodik qo‘llanmalar: Boshlang‘ich EMI darsliklarida Dual Coding infografikalaridan va interaktiv vizual vositalardan keng foydalanishni yo‘lga qo‘yish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Macaro, E. (2018). *English Medium Instruction: Content and Language in Higher Education*. Oxford University Press.
2. Dearden, J. (2015). *English as a medium of instruction – a growing global phenomenon*. British Council.
3. Jalolov, J. J. (2022). *Chet til o'qitish metodikasi: Boshlang'ich ta'lim nazariyasi va amaliyoti*. Tashkent: O'qituvchi Nashriyoti.
4. Hasanova, D. (2020). *Language policy and literacy in Uzbekistan*. *International Journal of Educational Reform*, 29(2), 112-128.
5. Kress, G., & van Leeuwen, T. (2006). *Reading Images: The Grammar of Visual Design* (2nd ed.). Routledge.
6. Sweller, J. (2011). *Cognitive load theory*. *Psychology of Learning and Motivation*, 55, 37-76.
7. Paivio, A. (2007). *Mind and Its Evolution: A Dual Coding Theoretical Approach*. Lawrence Erlbaum Associates.
8. Mayer, R. E. (2009). *Multimedia Learning* (2nd ed.). Cambridge University Press.
9. Vygotsky, L. S. (1978). *Mind in society: The development of higher psychological processes*. Harvard University Press.
10. Bruner, J.S. (1983). *Child's Talk: Learning to Use Language*. Oxford University Press.